

MUSIQA CHOLG'U ASBOBLARI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA.

Abdurashidov Otabek Ulug'bek o'g'li

Davlat xizmatchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqa cholg'u asboblari, urib chalinadigan rezonatorsiz, klavishli urib chalinadigan sozlar, urib chalinadigan rezonatorli sozlar, torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u, asbob, trubkalar, chelesta, guruh, cholg'ular, kompozitor, musiqa, asar, ijro, xalq, tasavvurlar, ramziy ma'nolar, estetika.

Halq cholg'u asboblari, ma'lumotlarga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Keyinroq halq ustalari tomonidan qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o'tgach esa nay, naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O'sha paytdagi nay cholg'u asboblari hozirgi zamon zamonaviy ko'p teshikli naylardan bir oz farq qilgan.

Vaqt o'tib, ushbu cholg'ular takomillashib, ko'p yillik naylar yuzaga keldi, so'ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'la boshladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek halq cholg'u asboblari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Musiqa cholg'u asboblari-musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turi ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir Musiqa cholg'u asboblari.ning sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazotm tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari. sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari.

qadimdan qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo'shimcha vositalar (mas, surdinayaan foydalanish), ijrochilik uslublari (mas, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba'zi musiqa bezaklari yordamida o'zgartirish mumkin. Paydo bo'lishi insoniyat tarixining ilk davrlariga to'g'ri keladi; mukammallanishi esa musiqa san'ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda Musiqa cholg'u asboblari.ni ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bog'liq.

Musiqa cholg'u asboblari. tovush manbalariga qarab guruxdarga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi)ga qarab guruhchalarga, o'ziga xos qo'shimcha belgilariga qarab xillarga bo'linadi. Musiqa cholg'u asboblari., asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamali (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektr va elektron musiqa chol-g'ulari, idiofonlar guruhlariga bo'linadi. Torli cholg'u asboblarning gurux.chalari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o'zbek so-zlaridan g'ijjak, ko'biz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, domra, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do'mbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari). Puflab chalinadigan cholg'u asboblarning guruxchalari: tilchali sozlar (surnay, qo'shnay, bo'lamon, shoxnay, klarnet, goboy va boshqalar), tilchasiz sozlar (naylar, fleytalar), mundshtukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari). Tilchali cholg'u asboblarning bo'linmalari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (changko'biz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamali urib chalinadigan cholg'u asboblarning guruxchalari: sozlanadigan (litavralar), sozlanmaydigan (nog'ora, doyra, baraban, tamburin va boshqalar) cholg'u asboblari. Plastinkali cholg'u asboblarning guruxchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilofonlar va boshqalar), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida ma'lum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, bo'sh idishlar va h. k. o'rnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (chelesta va boshqalar).Idiofonlarning guruxchalari: sozlanadigan (orkestr kolokoli, ko'ng'iroqchalar, gong va boshqalar), sozlanmaydigan (tarelkalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mis lagan, zang va boshqalar) cholg'u asboblari.

Musiqa cholg' u asboblaria. ba'zida xalq va professional (orkestr) turlarga ham bo'linadi. Orkestr cholg' ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko'p ovozli musika asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholg' ulari esa ma'lum millat (elat) monodik musiqqa ijrosi uchun qo'llaniladi va musiqiy tovush quroli bo'lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklida xalq badiiy tafakkuri, nafosat tasavvurlari, ramziy ma'nolar aks etgan. Cholg'ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta'sir o'tkazishda, harbiylar, cho'ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo'rqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan.

Markaziy Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la. O'z xalqining ozodligi yo'lida jonini qurbon qilgan cho'pon Shiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo'lgan muhabbati to'g'risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Ibrohimov O. Maqom va makon. -Toshkent: Movarounnahr, 1996, 96-b.
3. История узбекской советской музыки. Вип. 1. -Ташкент: изд. им. Г.Гуляма, 1972, 210 с.
4. <http://e-library.namdu.uz/O'zbek%20musiqqa>